

TARIXIY SO‘ZLARNING SOTSIOPRAGMATIK TADQIQI

Nasiba Jumayevna Yarashova

Navoiy innovatsiyalar universiteti kafedrası professori v.b., f.f.d. (DSc).

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11084061>

Annotatsiya. *Har qanday badiiy asarda zamon va makon o‘ziga xos betakror o‘ringa ega. Chunki bu kategoriyasiz asarning sujeti va kompozitsiyasini tasavvur qilish qiyin. “Navoiy” romanida ham yuqorida qayd qilingan tamoyil va talablarga amal qilinganligining guvohi bo‘lamiz. Xususan, tarixiy davr va muhit, hayot va sharoitni yorqin ifodalash, hayot haqiqatiga mos voqelik tasvirini berish maqsadida asar matnini tarixiy so‘zlarga boy tarzda shakllantiradi, tarixiy so‘zlarni badiiy maqsadni amalga oshirishga xizmat qildiradi, ulardan unumli foydalanadi. “Navoiy” romani matnlarida istorizm va arxaizm birliklar ko‘pchilikni tashkil qilib, ular asar personajlari nutqini individuallashtirish va voqealar bo‘lib o‘tgan davr, zamoni jonlantirish, uning yorqin tasavvurini hosil qilishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar. *Istorizm, arxaizm lisoniy, nutqiy, stilistik.*

SOCIOPRAGMATIC STUDY OF HISTORICAL WORDS

Abstract. *Time and space have a unique place in any work of art. Because it is difficult to imagine the subject and composition of the work without this category. In the novel "Navoi" we can witness that the principles and requirements mentioned above are followed. In particular, in order to vividly express the historical period and environment, life and circumstances, to give a realistic image of reality, he forms the text of the work rich in historical words, uses historical words to fulfill the artistic purpose, and uses them effectively. In the texts of the novel "Navoi", historicism and archaism constitute the majority of units, and they serve as an important factor in individualizing the speech of the characters of the work, reviving the period and time in which the events took place, creating a vivid image of it.*

Keywords: *Historicism, archaism linguistic, rhetorical, stylistic.*

СОЦИОПРАГМАТИЧЕСКОЕ ИЗУЧЕНИЕ ИСТОРИЧЕСКОГО СЛОВА

Аннотация. *Время и пространство занимают уникальное место в любом художественном произведении. Потому что без этой категории сложно представить тематику и композицию произведения. В романе «Навои» мы видим соблюдение упомянутых выше принципов и требований. В частности, чтобы ярко выразить исторический период и среду, жизнь и обстоятельства, дать реалистическое изображение действительности, он формирует богатый историческими словами текст произведения, использует исторические слова для выполнения художественной цели, использует их. эффективно. В текстах романа «Навои» историзм и архаизм составляют большинство единиц и служат важным фактором индивидуализации речи персонажей произведения, оживления периода и времени, в котором происходили события, создания яркого образа этого.*

Ключевые слова: *Историзм, архаизм лингвистический, риторический, стилистический.*

Tarixiy so‘zlarning lisoniy va nutqiy, stilistik xususiyatlari, vazifaviy imkoniyatlari, ayniqsa, tarixiy-badiiy asar leksikasida yaqqol namoyon bo‘ladi. Tarixiy so‘zlarning ma’noviy va

stilistik xususiyatlari, vazifa va imkoniyatlari ilmiy adabiyotlarda¹ qayd qilingan bo‘lib, shular asosida ularning tarixiy asar leksikasini shakllantirishdagi o‘ziga xos o‘rni va ahamiyatini ham anglash mumkin. Ayniqsa, tarixiy so‘zlarning stilistik xususiyatlari, vazifa va imkoniyatlari keng bo‘lib, ulardan maqsadga muvofiq va unumli foydalana olish ijodkorning mahorati, salohiyati va tajribasiga bevosita bog‘liq. Umuman, istorizm va arxaizmlarning badiiy nutq tarkibida tutgan o‘rni, vazifasi alohida ahamiyat kasb etadi. Ular, nafaqat, fikr ifodasi, tarixiy davrni jonlantirish vositasi, balki nutq egalarining ruhiyati, dunyoqarashi, salohiyati va madaniyati kabi xususiyatlarini ham namoyon qiluvchi muhim omildir. Bu o‘rinda “Navoiy” romanidagi matnlarning leksikasini ijtimoiy-lisoniy jihatdan tavsiflash jarayonida tarixiy so‘zlarga e‘tibor qaratishni lozim deb deb topdik.

I. “Navoiy” tarixiy romani leksikasidagi **istorizmlarni** quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

1. Ijtimoiy-siyosiy nomlar: *podshoh, vazir, qul, qarol.*

2. Mansab, unvon, lavozim nomlari:

a) yuqori mansablar: *qozikalon, miroxo‘r* (podshoh otboqarlarining boshlig‘i), *parvonachi* (podshoh farmonlarini yozib oluvchi va ishlar bo‘yicha podshohga ma‘ruza qiluvchi amaldor), *muhrdor, dorug‘ayi kutubxonai humoyun* (podshoh kutubxonasining boshlig‘i), *beklarbegi* (viloyat va katta shaharlarning boshlig‘i), *shayx ul-islom* (diniy ishlar bo‘yicha amaldor), *dorug‘a* (shahar idorasi boshlig‘i, bosh mirshab), *muhtasib* (diniy ishlarning musulmonlar tomonidan bajarilishini taftishlab yuradigan ma‘mur), *dorug‘ayi kabutarxonai humoyun* (podshoh kabutarxonasining boshlig‘i), *sadr* (vaqf va diniy ishlarni boshqaruvchi ma‘murlar), *bosh haram og‘asi* (haramdagi xotin-qizlarni kuzatib yuruvchi bichilgan qullar boshlig‘i), *qal‘a begi* (qal‘a boshlig‘i), *boyon* (boylar), *sohibi devon* (mahkama boshqaruvchisi).

b) quyi lavozimlar: *eshik og‘asi, muboshir* (soliq yig‘uvchi), *ichkilar* (saroy yumushlarini bajaruvchi maxsus beklar), *yasovul* (qurolli soqchi, posbon), *tovonchi* (dasturxonchilar, ziyofatni boshqaruvchi), *mirob* (suv taqsimotini nazorat qiluvchi shaxs), *oqsoqol* (qishloqqa boshliq bo‘lgan amaldor), *chopar, mulozim, kanizak, g‘unchachi, zakotchi.*

d) unvonlar: *mahd ulyo* (Xadichabegimning unvoni), *mu‘tamid ul-saltanat va mu‘imtan ul-mamlakat* (podshohlik va mamlakatning ishonchli odami).

3. Kasb-hunarni ifodalovchi istorizmlar: *aslahafurush* (qurol-yarog‘ sotuvchi), *bakovul* (oshpaz), *bazzoz* (gazlama sotuvchi), *bo‘zchi, kosib* (mayda hunarmand), *halvofurush, munshiy* (kotib), *hakimi hoziq* (usta tabib), *kafshdo‘z, jomado‘z* (tikuvchi), *kosagar, baqqol* (mayda mollar sotuvchi kichik savdogar), *mudarris* (madrasada dars beruvchi), *muarrix* (tarixchi), *sahhof* (muqovachi), *mug‘anniy* (cholg‘uchi), *soqiy* (may quyuvchi), *sarroj* (ot asboblari yasovchi hunarmand).

4. Ilm-fan, adabiyot va san‘at bilan bog‘liq bo‘lgan istorizmlar: *asrori g‘ayb ilmi* (osmon sirlari ilmi), *gushtgirlik ilmi* (pahlavonlik, badan tarbiyasi haqidagi ilm), *ilmi jarri saqil*

¹ O‘zbek tili leksikologiyasi. –Toshkent: Fan, 1981; Shoabdurahmonov Sh. va b. Hozirgi o‘zbek adabiy tili, 1-qism. – Toshkent: O‘qituvchi, 1980. 124-126-betlar; Boymirzayeva S.U. Oybek prozasining lingvostilistik tadqiqi: filol. fanlari nomz. diss... – Samarqand, 2004. 40–bet; Qurbonov T. Tarixiy badiiy asar va davr tili masalalari. Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar. Bobur” romani materiallari asosida. –Toshkent, 2006. 28–bet.

(mexanika), *ilmi rom* (folbinlik), *qonun* (qadimiy torli-tirnama cholg' u asbobi), *daf* (childirma, doira), *ulumi diniya* (diniy ilmlar), *ilmi badi'* (she'r va san'at nazariyasi).

5. Davlat va huquqqa oid istorizmlar: *mirob* (suv solig'i), *ushr* (dehqonchilikdan keladigan daromadning 1\10 qismi), *qo'sh solig'i*, *sohibjam solig'i*, *boj* (hunarmandlardan olinadigan soliq), *suyurg'ol* (podshoh tomonidan sovg'a qilingan yer), *sarona* (jon boshiga olinadigan soliq), *tarxon* (maxsus imtiyozli oqsuyaklarning yeri, bu yerlar soliqdan ozod bo'lgan), *vasiqa* (shaxsiy guvohnoma), *zakot* (chorva va mol-mulkdan 1\40 miqdirida olinadigan soliq), *xiroj* (yer solig'i).

6. Harbiy tushunchalarni ifodalovchi istorizmlar: *birong'or* (qo'shinning so'l tomoni), *hirovul* (qo'shinning oldingi qismi), *jirong'or* (qo'shinning o'ng tomoni), *sarkarda* (lashkarboshi), *siloh* (qurol), *til tutmoq* (dushmanning vaziyati haqida ma'lumot olmoq uchun dushman odamlarini qo'lga tushirmaq), *g'o'l* (qo'shinning o'rta qismi).

7. Diniy tushunchalar bilan bog'liq istorizmlar: *faqr-u fano* (darveshlik, so'filik), *fiqh* (musulmon qonunshunosligi), *go'shanishinlik* (tarki dunyo qilib, odamlardan uzoq yashash), *rub'i maskun* (dunyoning inson obod qilgan qismi).

8. O'rin-joy ma'nosini ifodalovchi istorizmlar: *haram* (hovlining ayollar uchun ajratib qo'yilgan qismi), *xobgoh* (yotoq uy), *zindon*, *devon* (bosh idora, mahkama), *hujra*, *qal'a*, *borgoh* (podshoh qabulxonasi), *xirgoh* (chodir, podshoh yashaydigan xos joy), *qasaba* (shahar), *xonaqoh* (xilvatxona, masjidning namoz o'qiladigan xonasi), *chortoq* (bino, ko'shk), *madrasa*, *qo'ra* (atrofi devor bilan o'ralgan hovli joy), *takya* (ko'knorixonona, odamlar to'planib ulfatchilik qiladigan joy), *guzargoh* (o'tish joyi, mahalla joylashgan yer), *iydgoh* (bayramlarda xalq sayil qiladigan maydon), *duvozi dahpoya* (maxsus minbarli chodir), *ba'qa* (kambag'al talabalar, musofirlar yashaydigan hujra), *obrez* (yuz-qo'l yuvish uchun maxsus yasalgan, usti berk o'ra).

9. Kiyim-kechak nomlarini bildiruvchi istorizmlar: *chakmon*, *jomakor* (ish kiyimi), *taqya* (sidirg'a matodan tayyorlangan gulsiz do'ppi), *jig'a* (bosh kiyimga taqiladigan, qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan ziynat buyumi), *bo'rk* (oshlangan qorako'l teridan silindr shaklida tikilgan bosh kiyimi), *isqarlot* (qirmizi qizil matodan tikilgan kiyim), *jubbaiy tillodo'zi va kulohi navro'z* (u zamonda amirlargina kiyadigan maxsus to'n va bosh kiyimi),

10. Narsa-buyum nomini bildiruvchi istorizmlar: *juzdon* (xat-hujjatlar solib qo'yiladigan jild, xalta yoki muqova), *davot* (siyohdon), *miqroz* (sham so'xtasini kesadigan kichkina qaychi), *manqal* (ko'mir bilan yoqiladigan ko'chma o'choq), *mahofa* (podshohning aravasi).

11. Narsalarning hisobi bilan bog'liq istorizmlar (numerativlar): *bir farsah* (6-7 chaqirim), *bir dinor* (tillo tanga), *qari* (bir quloch qadar uzunlik), *botmon* (1.895,5 ga teng og'irlik o'lchovi), *pud* (16,38 kilogrammga teng og'irlik o'lchov birligi).

12. Taom, yegulik nomlari bilan bog'liq istorizmlar: *olihirot* (meva), *qo'g'irmoch* (qozonda qovrilgan bug'doy), *umoch*, *ubra*.

13. Ichimlik nomlari: *bo'za* (tariqdan qilinadigan ichimlik), *chog'ir* (may).

14. Tibbiyotga doir so'zlar: *ma'jun* (turli ziravorlarga afyun qo'shib tayyorlanadigan dori), *kasali sakta* (birpasda sezgi va harakatning to'xtab qolishi).

Yuqorida lug'aviy ma'noviy guruhlariga ajratilgan istorizmlar asar personajlari nutqida faol qo'llangan:

– *Obdon yaxshi ish bo‘libdi-ku! – dedi To‘g‘onbek qo‘pol gavdasini xo‘jasi tomon surib.*
– *Durust, muboshirlik chakki ish emas. Lekin yo‘l-yo‘rig‘ini tushuntiring. (53-b.)*

Ushbu eskirgan so‘zlar orasida o‘zaro paronimlik hodisasi ham uchraydi. Masalan, *taqya* (sidirg‘a matodan tayyorlangan gulsiz do‘ppi), *takya* (ko‘knorixonona, odamlar to‘planib ulfatchilik qiladigan joy).

Oybek “Navoiy” romanida istorizmlardan foydalanish orqali ikki maqsadni ko‘zda tutganligi seziladi. Birinchidan, asar personajlarini yorqinroq ifodalash, uning bilim saviyasini ko‘rsatib berish maqsadida yozuvchi ilm-fan, davlat va huquqqa oid, harbiy va diniy atamalar guruhiga ana shunday o‘rinli murojaat qiladi. Ikkinchidan, asar qahramonlari nutqining ishonarli tarzda bo‘lishini ta‘minlash uchun arxaizmlardan foydalanadi. Qolaversa, o‘sha davrda mazkur atamalarning umumiste‘molda bo‘lganligi va ular vositasida predmet, hodisalarning nomlanishi fikrlarning tabiiy, ishonarli chiqishini ta‘minlashga xizmat qilgan. Eng muhimi, istorizmlar badiiy asar tilida ma‘lum bir tushuncha ifodalovchi atama sifatidagina emas, balki personajlar nutqini individuallashtirish vositasi sifatida ham muhim uslubiy vazifa bajargan.

Xullas, yuqorida keltirilgan istorizmlar “Navoiy” tarixiy romanida faol qo‘llanilgan bo‘lib, asar voqealari tasvirlangan davr va ijtimoiy hayotning haqqoniy ifodasini ko‘rsatishni ta‘minlashga xizmat qilgan. Adib o‘sha davrda qo‘llanilgan so‘zlardan o‘z o‘rnida foydalana olgan, bu orqali tarixiy davr hayot haqiqatini ta‘minlashga erishgan.

REFERENCES

1. Bozorboyev K. O‘zbek so‘zlashuv nutqi frazeologizmlari: filol. fan. nomz. ...diss. – Samarqand, 2001.
2. Hazratqulov A. Dialogik nutq sintaksisining ba‘zi xususiyatlari. (dialogik birlik haqida metodologik ko‘rgazma). – Qarshi, 1978.
3. Hojiyev A. O‘zbek tili terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 2000.
4. Hotamov N., Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati. – Toshkent, 1981.
5. Ibragimova O. Boburnomadagi unvon va mansab nomlari. // O‘zbek tili va adabiyoti, 2008, – №4.
6. Ibrohimov S. Tilga e‘tibor – elga e‘tibor. – Toshkent: O‘zbekiston, 1972.
7. Imomova G. Milliylik va badiiy nutq. – Toshkent, 2004.
8. Imomova G. Tipik milliy xarakterlar yaratishda badiiy nutqning roli: filol.fan. nomz. ...diss. – Toshkent, 1993.
9. Ismatullayev N. Hozirgi o‘zbek tilida kakofemizmlar va ularning stilistik roli. Leksika, stilistika va nutq madaniyati masalalari ilmiy asarlar to‘plami. – Toshkent, 1980.
10. Iskandarova Sh. O‘zbek nutq odatining muloqot shakllari: fil.fan.nomz...diss. – Toshkent, 1993.